

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIJDON ERKINLIGINING HUQUQIY HOLATI

Mamsoliyev G'olibjon Mirzo o'g'li

Toshkent Davlat Transport Univerersiteti

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Inagamova Mafura Muxtorxanovna

Anotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda va jahonning ko'plab mamlakatlarida amaliyotga tatbiq etilayotgan vijdon erkinligining o'ziga xos xususiyatlari va uning inson hayotiga ijobiy ta'sir qilayotgani, Shuningdek buning huquqiy asosi qilib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilganligi, O'zbekistonda din va diniy dunyoqarash dunyoviy turmush tarzi va dunyoviy fikr bilan yonmayon rivojlanib kelayotganligi haqida yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрены особенности свободы совести, которая реализуется в нашей стране и во многих странах мира, и ее положительное влияние на жизнь человека, а также то, что она закреплена в Конституции Российской Федерации. Освещена Республика Узбекистан как правовая основа, религия в Узбекистане и религиозное мировоззрение, развивающееся бок о бок с мирским образом жизни и мирским мышлением.

Annotation: In this article, the specific features of the freedom of conscience, which is practiced in our country and in many countries of the world, and its positive impact on human life, as well as the fact that it is enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan as a legal basis, religion in Uzbekistan and the religious worldview that develops side by side with the worldly way of life and worldly thought is highlighted.

Tayanch so'zlar: Vijdon erkinligi, "Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi", konstitutsiya, konstitutsiyaviy qadriyatlar, fuqarolik asosida munosabatda bo'lish, hozirgi globallashuv jarayoni, diniy bilimni boyitish.

Ключевые слова: Свобода совести, «Всеобщая декларация прав человека», конституция, конституционные ценности, гражданское отношение, современный процесс глобализации, обогащение религиозных знаний.

Key words: Freedom of conscience, "Universal Declaration of Human Rights", constitution, constitutional values, attitude based on citizenship, current globalization process, enrichment of religious knowledge.

Inson huquqi barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo'lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo'lmasin hamma uchun

bir hildir. Bu huquqlar "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga" asoslangan. Inson Huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadigan doktrinadir. Inson Huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo'lib u dunyoning ko'pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konventsiyalar orqali tan olingan.

Vijdon erkinligi - ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyatiga ega. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan Vijdon erkinligiga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan Vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan. Konstitutsiyaga ko'ra, "hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega" (35-modda). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo'yicha, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Ayni vaqtda yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra, dinga munosabatidan qat'i nazar fuqarolarning tengligi ta'minlanadi (4-modda). Ushbu qonunda ta'kidlanishicha, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Qonun muayyan yoshga yetgan fuqarolarning o'z diniy ehtiyojlarini qondirish uchun diniy tashkilot tuzish, oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish tartib-qoidalarini ham belgilab bergan. Ayni vaqtda dindan davlat va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, millatlararo adovat uyg'otishda, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlat, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa g'arazli maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi (5-modda). Vijdon erkinligining mavjudligi bizga juda ko'p qulayliklarni beradi jumladan: har bir inson o'zini erkin xis qilishi, mamlakatimizda fuqarolarning diniy e'tiqodini amalga oshirishda duch kelayotgan muammolarni bartaraf etishi, diniy ta'lim olishni va diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi, dinlararo va millatlararo nizolarni kelib chiqishini oldini olishga xizmat qilishini misol qilib olsak bo'ladi.

Bugungi kunda vijdon erkinligi juda ko'p davlatlarda o'rganilayotgan va amaliyoga tatbiq etilayotgan ijtimoiy harakat ekanligini "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ning 18-moddasida belgilab qo'yilganligidan ham bilsak bo'ladi. Bunda quyidagilar bayon qilingan: Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega, bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado

etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi.

Bu insonning dini va e'tiqodini o'zgartirish hamda o'z dinini jamiyatda namoyon qila olish erkinligini jamoat joylarida bo'lsin, yoki xususiy joylarda, ta'lim jarayonlarida, ibodatlarda namoyon etish huquqini ta'minlaydi. Ushbu tushuncha mazmuni shundan iboratki, har bir inson o'z fikri, dini yoki e'tiqodini tanlash, ularni o'zgartirish uchun qonun yoki odat bilan cheklanmagan to'liq erkinlikka egadir. Inson o'z fikrlari va qarashlarini majburan yoki jamiyatdagi biron bir shaxs tomonidan taqiqlanmagan holda shakllantirishda erkindir. Demokratik davlatda vijdon erkinligi o'z navbatida so'z erkinligini ham o'z ichiga oladi. Bu Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan. Vijdon erkinligi tartibning xususiyatlari va talablaridan biridir. Demokratik davlatlarning konstitutsiyalarida vijdon erkinligining mavjudligi, fuqarolik va demokratik davlat bilan avtoritar yoki teokratik davlatni ajratib turadigan mezon sifatida qabul qilinadi, bu yerda davlat dini yoki mazhab asoslariga asoslanib cheklovlar yoki nazorat o'rnatishga haqli emas. Masalan, davlat va siyosiy lavozim vakillari o'z fuqarolariga diniy asosda emas, balki fuqarolik asosida munosabatda bo'lish huquqiga ega va shuning uchun u turli mafkura odamlariga o'zlarining diniy marosimlari va unda bo'ladigan o'z huquqlaridan foydalanishga imkon berishlari kerak. Bular har bir demokratik davlatning konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan vijdon erkinligi har bir fuqaroga biror dinga e'tiqod qilish yoki birorta dinga e'tiqod qilmaslik huquqini kafolatlaydi. Ammo dunyoning hozirgi globalashuv jarayoni, ayniqsa, yoshlarni «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yurtimizga kirib kelayotgan turli g'ayriaxloqiy, buzg'unchi g'oyalar ta'siridan asrashni har qachongidan dolzarb vazifa qilib oldimizga qo'yimoqda. Shu bois yoshlarning diniy bilimni boyitish, dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo'lib, kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhimdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlari vijdon erkinligi masalasi o'z ifodasini topgan.

Vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

- konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash;

- jamoat tartibiga, respublika fuqarolarining sog'lig'i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g'oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish va boshqalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunga vijdon erkinligi mamlakatimizda boshqa demokratik davlatlar singari fuqarolarga to'liq ta'minlanib berilmoqda. Diniy tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, boshqa millat vakillari esa o'zlarining din va mazhablariga emin-erkin e'tiqod qilmoqda. Hozirda yurtimizda 15 dan ortiq diniy konfessiya vakillari bag'rikenglik tamoyili asosida yashamoqdalar. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida hamjihat faoliyat yuritmoqdalar. Aytishimiz mumkinki, ko'pmillatli O'zbekistonimizda turli diniy e'tiqodlar vakillari o'rtasidagi hamjihatlikni huquqiy mustahkamlab qo'yilgan. Bu quyidagi: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar" (19-modda) deyilgan jummalarda o'z ifodasini to'gan. E'tibor bersak, mazkur moddada diniy e'tiqod hamda milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-tuyg'ulariga daxldor muhim ahamiyatga ega qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilamiz.

Ushbu mavzu yuzasidan shuni taklif beraolamanki huquq tartibot organlari tizimida vijdon erkinligiga oid jinoyatlarga qarshi kurash maqsadida maxsus dinshunos-ekspert xodimlarni tayyorlashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. <https://lex.uz/ru/docs/-5663785>
3. <https://lex.uz/ru/docs/-5663785>
4. Norma.uz
5. http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/3349/mod_resource/content/0/DINSHUNOSLIK%20OQUV%20QOLLANMA
6. <https://religions.uz/uz/pages/1>
7. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son
8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.